



MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA MASOFAVIY (ONLINE) O'QITISHNING AFZALLIKLARI

**Atajanova Rohatoy
Dilmurod qizi**

*Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, Tarmoqlar
iqtisodiyoti kafedrasi assistenti
Tel: 998906220970*

Ammotsatsiya

Bugungi tobora globallashib borayotgan dunyoda zamondan ortda qolmaslik, ta'lif tizimi tajribalari ko'rsatkichdagi, o'quv jarayonida internet tizimi va AKTni yangi bilimlarni egallash, saklash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormokda. Internet tizimi va AKT imkoniyatlaridan MTda foydalanish avvalo ta'lif sifati, ijtimoiyligi, ommabopligi hamda iqtisodiy jihatdan hammaga maqbul bo'lishligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar:	globallashuv, iqtisodiyot, moliya, moliyaviy munosabatlar, byudjet, boshqaruv, davlat, siyosat, soliq, kodeks, moliyaviy hisobot, jamiyat, xalqaro munosabatlar, valyuta.
-----------------------	---

KIRISH

Mamlakatimizning ta'lif sohasini isloh qilish bo'yicha asosiy hujjatlaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), internet va kompyuter tarmoqlari negizida tashkil etish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Mamlakatimiz ta'lif tizimida ushbu vazifalar o'z vaqtida hamda samarali amalga oshirilmokda. Belgilangan maqsadga erishishda uzviy va izchil, o'zaro uyg'unlashgan tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, o'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini joriy qilish maqsadida «Elektron ta'lif» milliy tarmog'ini barpo etish hamda barcha oliy o'quv yurtlarini, keyinchalik esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini yagona kompyuter axborot tarmogiga ulashni ta'minlash vazifasi»... [2] belgilab berilib hozirgi davrda mazkur tadbirlar kompleks tarzda muvaffaqiyatli amalga oshirilmokda.

Ushbu vazifalarni yanada muvaffaqiyatli bajarilishi uchun bu borada o'z ijobjiy natijasini bera oladigan yangi innovatsion chora-tadbirlar hamda takliflar ishlab chiqilib soha amaliyotiga joriy qilinishi zarur. Shunday tadbirlardan biri rivojlangan

mamlakatlar ta’lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash uchun keng ko‘lamda samarali qo‘llanilayotgan o‘qish jarayoni zamonaviy AKTlarga asoslangan masofaviy ta’lim (MT) shaklidir.

Ta’lim tizimi tajribalari ko‘rsatmokdaki, o‘quv jarayonida internet tizimi va AKTni yangi bilimlarni egallash, saklash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormokda. Internet tizimi va AKT imkoniyatlaridan MTda foydalanish avvalo ta’lim sifati, ijtimoiyligi, ommabopligi hamda iqtisodiy jihatdan hammaga maqbul bo‘lishligini ta’minlaydi.

Bulardan tashqari MTni an’anaviy o‘qitish shakliga taqqoslaganda bir qator afzalliklari hamda ijobjiy jihatlari mavjud. Ta’kidlash kerakki, o‘qitishning zamonaviy MT shaklini mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida samarali joriy etish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) — bu, keng ko‘lamdagi tushuncha bo‘lib, unga texnologik vositalar yordamida kommunikatsiyaga jalb etilgan tizimlar, jarayonlar va shaxslar kiradi.

Masofali ta’lim — bu, zamonaviy AKT yordamida masofaviy o‘qitish jarayoni qo‘llanadigan, ta’lim darajasini (ta’lim senzini) tasdikdovchi, ta’lim olishning pedagogik tizimidir.

Masofaviy ta’lim — axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, masofadan turib, o‘quv axborotlarining almashuvini ta’minlaydigan, o‘quv jarayonini olib borish hamda boshqarish tizimini amalga oshiradigan bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayonidir.

Masofaviy ta’lim — bu, muayyan sohada mutaxassislar tayyorlash tizimidagi barcha fanlarni kompleks tarzda masofaviy o‘qitishga asoslangan, biroq, kompleks doirasida o‘qish jarayoni uchun qat’iy belgilangan joy va vaqt mezonini shartli o‘rnatilmagan ta’lim shaklidir.

Bu ta’rif mohiyatini to‘la va to‘g‘ri tushunish uchun, uni yuqorida qayd etilgan masofaviy o‘qitishning ta’rifi bilan birga keltirish kerak, albatta.

Masofaviy o‘qitish zamonaviy ta’limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta’lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlar masofadan o‘qitish borasida boy tajriba to‘plangan.

Masofaviy ta’lim texnologiyasi 1969 yilda Angliya premer-ministri G.Vilson tashabbusiga ko‘ra shakllantirilgan deb hisoblanadi. Ammo masofadan o‘qitish ancha oldinroq, ya’ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan. 1858 yildan boshlab London universitetida barcha xohlovchilarga ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalardagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan.

1938 yildan buyon Sirtqi ta’lim bo‘yicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab, Masofaviy ta’lim bo‘yicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta’lim tashkilotlari sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ochiq universitetlardagi o‘qish xarajatlari an’anaviy institatlarda o‘qitishga qaraganda 8–10 marta arzon. M: Angliyada turg‘un o‘qishga 3000, masofaviy o‘qitish orqali bilim olishga esa atiga 300 funt sterling

to‘lanadi. Binolarga xizmat ko‘rsatish, jihozlar va laboratoriya uchun xarajatlar, o‘qituvchi, ma’muriyatlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar shtati qisqaradi. Ta’lim oluvchilarga filiallar tarmog‘i, telestudiya va kompyuter tarmog‘i orqali maslahatlar beriladi. Angliyada o‘quvchilarni tayyorlash dasturi 130 ta kursni o‘z ichiga qamrab oladi, ularning ko‘plari fanlararo bog‘lanish xususiyatiga ega.

Masofaviy ta’lim AQShda o‘tgan asrning 60-yillarning o‘rtalaridan, Yevropada esa 70-yillarning boshlarida jadal rivojlna boshlandi. O‘qitishning bu shakli ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilarning bir-birlari hamda o‘qitish vositalari bilan o‘zaro ta’sirining maqsadga yo‘naltirilgan interfaol jarayonidan iborat bo‘lib, bunda ta’lim jarayoni ularning geografik fazoviy joylashishiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Ta’lim jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya’ni o‘qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari, nazorat, o‘quv-moddiy, moliyaviy-iqtisodiy, me’yoriy-huquqiy va marketing kabi elementlarni qamrab olgan o‘ziga xos pedagogik tizimda kechadi.

MT turli geografik mintaqalarda joylashgan o‘qituvchi va talabani bog‘lovchi jarayon bo‘lib, o‘zaro aloqalar maxsus texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. O‘zaro aloqalarni amalga oshirishda turlicha usullar qo‘llaniladi: pochta yoki telefaks orqali bosmaxona materiallarini almashish, audiokonferensiya, videokonferensiya, kompyuter orqali virtual konferensiya kabilardir.

O‘quv yurtidan uzokda yashovchilar, qatnab o‘qish uchun sharoiti bo‘lmaganlar, malakasini oshirishni xoxlovchilar, nogironlar va yana boshqa turli sabablarga ko‘ra, bevosita oliy o‘quv yurtiga borib o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlarning masofadan turib bilim va ta’lim olishga bo‘lgan talablari ortib borishi tabiiydir.

Masofaviy ta’lim o‘qitishning an’anaviy usullaridan foydalanish, turg‘un sharoitda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart-sharoitlar tufayli chegaralangan shaxslar, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining tinglovchilar, xorijiy mamlakatlarning ta’lim muassasalarida o‘qitish istagida bo‘lgan abiturientlar, ikkinchi mutaxassislikni egallashni xohlovchi kadrlarga juda qulay sharoitni yaratib beradi. Ayniqsa, ish bilan band bo‘lgan katta yoshdagি kishilar, ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olishni xoxdovchilar uchun MT juda kulay vositadir.

MTga quyidagi beshta asosiy holat bilan tavsiflanuvchi ta’lim sifatida qarash mumkin:

- o‘qituvchi va o‘quvchining mavjudligi;
- ta’lim jarayonining ma’lum masofada amalga oshirilishi;
- o‘rgatuvchi va o‘quvchining o‘zaro ikkiyoqlama muloqoti;
- masofaviy o‘qish uchun mo‘ljallangan maxsus materiallar;
- mavjudligi;
- har ikki tomonning kompyuter va boshqa texnika va kommunikatsiya;
- vositalari bilan ta’minlanganligi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’limda, shu jumladan MTda AKT tizimni» shakllantirish va rivojlantirishda quyidagilar muhim hisoblanadi: maqsadlarini amalga oshirish uchun yuqori malakali kadrlarni qayta tayyorlash; – yangi ehtiyojlardan kelib chikib mutaxassislar tayyorlash, ya’ni bozorni shakllantirish; – yangi kadrlarni tayyorlashda sifatga bo‘lgan talablardni to‘g‘ri inobatga olish; sub’ektlar bilan

integratsiya asosida hamkorlik kilish; – faoliyat uchun zarur bo‘lgan yoki jalb kilingan mexanizmlar; – tarmog‘ini tuzish va ular bilan birgalikda ishlash; – bozor unsurlarini yaratish, o‘zgartirish va takomillashtirish; – Masalan, soliq qonunlari, tashqi muhit va xavfsizlikni tartiblashtirish; bilimlarning tovarga aylanish jarayonini jadallashtirish, ularni amaliyotga joriy etishga karatilgan innovatsion faoliyatlarni moliyalashtirish. AKTni jamiyat va iqtisodiy sohalarda qo‘llash innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi. Uning sohalari: – AKT ta’lim tizimlarini boshqarishda qo‘llash; – AKT kutubxona va axborot resurs markazlarini tashkil etishda; – qo‘llash hamda AKTni dars berish jarayonida qo‘llash. Yuqorida ta’kidlanganidek, zarur bilimlarni sotish va sotib olish uning tovarga aylanganligini bildiradi. Chunki, bilimlarning muntazam ravishda yangilanib turilishi va ularni ish kuchi tomonidan qo‘llanilishi ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyotning kalitidir. Bilim berishga ixtisoslashgan oliy ta’lim va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida innovatsiyalar keng ko‘lamda qo‘llanilishi zarur. Ya’ni, masofaviy o‘qitishni maktab ta’limiga tatbiq etish, yangi fanlar va texnologiyalarni qo‘llash kabilar shular jumlasidandir. Ushbu jarayonning ommaviy lashishi natijasida, universitetlarning ishlab chiqarish va bozor bilan alokasi yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta’lim jarayoniga AKT ni qo‘llash quyidagilarga imkon beradi:

- shaxsnинг intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga;
- jamiyatning har bir a’zosi o‘z malakasini oshirish va faoliyat sohasini o‘zgartira olishga;
- qulay ta’lim uchun shart-sharoit yaratish va samarasini oshirishga;
- ta’lim resurslaridan samarali foydalanish asosida bir talabaga to‘g‘ri keluvchi xarajatlarni pasaytirishga;
- oliy o‘quv yurtlarida an’anaviy ta’lim shaklida o‘qish imkonini bo‘lmagan shaxslarga MT vositasida oliy ma’lumot olishga va shu kabilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim tizimida AKT ni qo‘llash, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara beradi. Shunig uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlarni davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

4. Sh, B. S., & Abdug‘aniev, Y. J. (2024). Youth Entrepreneurship and its Socio-Economic Advantages. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(4), 166-169.
5. Shukurullayevna, B. S. (2024). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN PROSPECTS OF DIRECTIONS. Journal of new century innovations, 54(3), 114-117.
6. Қаххоров, Ш., & Шаробиддинов, А. (2024). КОРПОРАЦИЯЛАРНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ ЖАХОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ. Interpretation and researches.
7. Qahhorov, S. (2023). SOLIQ SIYOSATINI IQTISODIY FAOLLIKKA YO ‘NALTIRILGAN MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 261-263.
8. Yusupov, N. S. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA LOYIXAVIY BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. PEDAGOGS, 59(1), 202-207.

9. Давидова Д. Т. СУФУРТАДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕЗОНЛАРИ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 56-62.

10. Mamayev B.N. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA RAQAMLI MARKETING ELEMENTIDAN BIRI INTERNET-REKLAMADAN FOYDALANISHNING TENDENSIYALARI Vol. 1 No. 8 (2022): O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI /

11. Mamayev B.N. O’ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI TA’MINLASHNING O’ZIGA XOS JIHATLATI International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 1 issue 20 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2

Internet saytlari

1. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi qonunlari, me’yoriy hujjatlari sayti
2. www.xs.uz – Xalq so‘zi gazetasining rasmiy sayti
3. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti
4. www.mf.uz – O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
5. www.cbu.uz – O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti